

## BADIIY TARJIMA VA UNING TURLARI

Gulzodaxon Odilova Akmaljon qizi

*OʻzDJTU 1-kurs talbasi*

Bakirova Xilolaxon Botiraliyevna

*Ilmiy rahbar: PhD, OʻzDJTU*

**Annotatsiya:** *Badiiy tarjima, ijodiy jarayon sifatida, adabiyotlarni va madaniyatlarni bogʻlovchi muhim vosita hisoblanadi. U nafaqat matnni bir tildan ikkinchisiga oʻtkazish, balki asarning estetik mazmunini, badiiy qudratini va madaniy xususiyatlarini saqlab qolish mahoratini talab qiladi. Ushbu maqola badiiy tarjimaning mohiyati, tamoyillari, va qiyinchiliklarini tahlil qiladi. Bundan tashqari, badiiy yoʻnalishdagi tarjimaning rivojiga xissa qoʻshgan shaxslar va tarjimashunoslikka oid boshqa maʼlumotlar berilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *kolorit, milliylik koloriti, nasriy asarlar tarjimasi, sheʼriy asarlar tarjimasi, dramaturgiya asarlari tarjimasi.*

Tarjima xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, badiiy yangiliklari tuzilmalari va barcha sohalarida haqida malumot olishimiz uchun eng yaxshi vosita hamda xalqlarning bir-biri bilan aʼloqaga kirishish uchun “tashuvchi” vazifasini bajaradi. Tarjima yozma va ogʻzaki turga boʻlinadi.

Yozma tarjimaning hayotimizda kop uchratuvchi turlarimizdan biri esa badiiy tarjima hisoblanadi. Badiiy tarjima insonlar hayotida, ularning boshqa xalqlar bilan fikr almashishda, butun jahon adabiy durdonalaridan habardor boʻlishda katta rol oʻynaydi.

Hozirgi kunda badiiy tarjima asarlari kundan kunga ortib bormoqda va bu oʻsish oʻzbek tarjimashunoslik sohasining rivojlanib borayotganligiga bir dalildir. Jahon bestsellerlari, jahon adabiy durdonalari va shu kabi koʻplab fikrlashimiz va dunyoqarashimizga oʻzining tasirini oʻtkazuvchi badiiy tarjimalar aynan insonlarning maʼnaviy boyligini yuksaltirish uchun xizmat qiladi.

Insonlar oʻzining hayotidan zerikkan yoki bir muddatga doimiy hayotdan uzoqlashmoqchi boʻlgan paytda baʼzi jahon adabiyoti durdonalari unga yordam berishi, uni oʻz oqimiga olib ketishi aniq. Lekin barcha insonlar ham bir necha tillarni mukammal bila olmaydi.

Tasavvur qiling agar badiiy asarlar bir tildan boshqa tilga tarjima qilinmaganda bizda qanchadan qancha qiyinchiliklar boʻlar edi... Lekin shu yerda bizga badiiy tarjima yordamga keladi. Badiiy tarjimaning rivoji xalqimizga chet el adabiyotidan baxramand boʻlish, oʻzga tildagi kitoblarni oʻz tilimizda milliyligimizga moslashtirilgan holda mutoala qilishda yordam beradi.

Oʻzbek klassik adabiyotida ayrim badiiy-estetik hodisalar haqiqiy ijodga qaraganda ertaroq, badiiy tarjima tufayli sodir boʻlganligi koʻzga tashlanadi.

Chunonchi, fors-tojik adabiyotida ilk dafa tarjima adabiyoti sifatida kirib keldi. Alisher Navoiyning zabardast “Xamsa” si yozilguniga qadar Nizomiy Ganjaviyning “Panj

ganj”i tarkibidagi “Mahzanul asror”, “Xusrav va Shirin”, “Iskandarnoma” dostonlari o‘zbek tiliga XIV asrning o‘rtalari va XV asrning boshlarida o‘girilgan edi. Bu tarjimalar o‘zbek adabiyotida xamsachilik an‘anasining qaror topishida muhim omil bo‘lganligi shubhasiz.[1]

Badiiy tafakkur mevasi bo‘lmish so‘z san‘atining tur va xillari, uslub va usullari mavjud. Xalqlar uzoq asrlar davomida o‘z tillari va didlari talabiga mos keladigan she‘riy shakllarda ijod qilganlar. She‘riyat sohasidagi bu tarixiy-badiiy tajriba an‘ana tusiga kirib, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda.

Turfa poetik janrlar ham bir xalqning badiiy ijod durdonalarini o‘zida aks ettirish bilan birga, ayni paytda umumjahon she‘riyati xazinasining noyob mulkiga aylangan.[2] 20-asr o‘zbek ijodkorlari Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Mirzakalon Ismoiliiy, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali va b. o‘zbek badiiy tarjima sohasiga o‘zining takrorlanmas merosi ila hissa qo‘shganlar.

Bizning nazdimizda, tarjimon (badiiy tarjimon) buyurtmani bajaruvchi kimsa emas, balki ijodkordir. Hatto u birlamchi ilk tarjima hisoblanmish taglama yaratayotganida ham shunday. Biz taglamaga tarafni oshirdik, bosilib chiqqan ishning sarvarag‘ida “xomaki” tarjima avtorining nomini ham yozadigan qildik, aslida, uni muallifga tenglashtirdik.[3]

Badiiy tarjima boshqa tarjima turlaridan o‘zining estetik va ijodiy tabiatiga ko‘ra ajralib turadi. Bu jarayon nafaqat leksik va grammatik moslikni ta‘minlashni, balki asar mazmunidagi hissiy tuyg‘ularni, uslubiy xususiyatlarni va yozuvchining individual ovozi saqlab qolishni talab qiladi. Shu sababli, badiiy tarjimon matnning ma‘no qatlamlarini to‘g‘ri anglash va ular orqali maqsadli o‘quvchi auditoriyasiga muvofiq qayta yetkazish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur.

Badiiy tarjimaning tamoyillari:

1. Adabiy aniqlik: Tarjima qilingan matn asarning asl nusxasiga yaqin bo‘lishi, mazmun va uslub jihatidan mos kelishi kerak.

2. Tilga moslashuv: Asl matnning badiiy qiymati va uslubi tarjima qilingan tilning qoidalariga moslashtiriladi. Bu jarayonda, tarjimon maqsadli tilning imkoniyatlaridan samarali foydalanadi.

3. Madaniy uyg‘unlik: Tarjima qilingan asar o‘quvchilarga oson qabul qilinadigan tarzda bo‘lishi, lekin asl madaniy xususiyatlarini yo‘qotmasligi lozim.

Badiiy tarjima jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

● Lingvistik tafovutlar: Tillarning leksik zaxirasi va grammatik tuzilmalari o‘rtasidagi farqlar tarjimaga tasir qiladi.

● Madaniy nomuvofiqlik: Bir madaniyat uchun muhim bo‘lgan obraz yoki ramz boshqa madaniyatda tushunarsiz bo‘lishi mumkin.

● Ijodiy talqin: Ba‘zan tarjimon asarni asl matnga maksimal darajada yaqin qoldirish va uni o‘quvchilar uchun o‘zgartirish o‘rtasida tanlov qilishga majbur bo‘ladi.

Nasriy tarjimaning mohiyati qanday? Nasriy tarjima — bu asarning nasriy shaklda yozilgan matnlarini bir tildan boshqa tilga o‘zgartirish jarayoni bo‘lib, uning asosiy vazifasi mazmun va mantiqiy strukturalarni imkon qadar to‘liq va aniq aks ettirishdan iborat. Nasriy tarjima poetik tarjimadan farqli ravishda, ritm, qofiya va uslubiy naqshlarga emas, balki matn mazmunini to‘g‘ri yetkazishga ko‘proq e‘tibor qaratadi.

Don Kixot asaridan parcha:

«Моя сеньора, — говорил дон Кихот, — ваша красота вольна теперь располагать собой, как ей заблагорассудится, ибо наглость ваших похитителей уже повержена в прах мощью моей руки, и чтобы вас не печалило незнание имени вашего спаси-теля, я скажу вам, что зовут меня дон Кихот Ламанчский»

Tarjimasi:

“ O, mening senyoram! Nozanin endi o‘zlarini, o‘z istaklaricha erkin tuta bilurlar, sababki nozaninni o‘g‘irlagan qabihlar kaminaning bilak kuchlari bilan tosh- to‘fonga aylandilar. O‘z homiylarining kimligini bilmay yuraklari qon bo‘lmasligi uchun, maxfiy qolmagaykim, mening ism-u sharifim Lamanchlik don Kixot erur”[4]

Poetik tarjimaning mohiyati qanday? Poetik tarjima she‘riy asarlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayoni bo‘lib, bu jarayon asarning mazmunini, badiiy uslubini, ritmini va hissiy tuyg‘ularini imkon qadar saqlab qolishga qaratilgan. Poetik tarjima badiiy tarjimaning eng murakkab turlaridan biri hisoblanadi, chunki unda nafaqat mazmunni, balki she‘rning shakli va estetik jihatlarini ham qayta tiklash zarur.

N. A. Nekrasovning “Yomg‘ir oldidan” she‘ri:

На ручей рябой и пёстрый,  
За листком летит листок.

Zulfiya tarjimasi:

Atlas kabi rang barang barglar,  
Suvga tushar quvib bir birin.

Xulosa qilib aytganda badiiy tarjima murakkab va ijodiy jarayon bo‘lib, tarjimondan chuqur til va madaniyat bilimlari, ijodkorlik va adabiy qobiliyatni talab qiladi. Ushbu jarayon milliy adabiyotlarni dunyoga tanitish va turli xalqlar o‘rtasida madaniy muloqotni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun badiiy tarjimani rivojlantirish va unga ilmiy asosda yondashish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

#### FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. Vahob Rahmonov. Sheroz bulbuli navolari. “Tarjima san‘ati”. To‘rtinchi kitob. Toshkent, 1978, 252-bet.
2. G‘aybulla Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. “O‘qituvchi” nashriyoti, 1983. 39-bet.
3. Sergey Baruzdin (Moskva). “Tarjima san‘ati” maqolalar to‘plami 5-kitob. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1980. 12-bet.
4. Don Kixot. Romandan parcha. M. Ismoilij tarjimasi. “ Guliston” jurnali, 1939, N 5, 22- bet.